



## O'smirlarda deviant xulq shakllanishiga oid qarashlar.

**Jo'rakulova Dildora Ziyadullayevna**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [dildorazurakulova178@gmail.com](mailto:dildorazurakulova178@gmail.com)

**Husanova Yodgora Sayfulla qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

E-mail: [husanovayodgora89@gmail.com](mailto:husanovayodgora89@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'smirlarning deviant xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillar ko'rib chiqiladi, xarakter shakllanishi va uning bu xatti-harakatlarni yumshatish yoki kuchaytirishdagi rolga e'tibor qaratiladi. Deviant xulq-atvor nafaqat o'smirlarga, balki ularning oilalari, maktablari, jamoalariga ham jiddiy tashvish tug'diradi. Bunday xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni tushunish va samarali choralarni ishlab chiqish juda muhimdir. Tadqiqot asosiy psixologik determinantlarni aniqlashga, ularning xulq-atvoriga ta'sirini baholashga va o'smirlarda ijobiy xarakter rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga intiladi.

**Kalit so'zlar:** o'smirlar, xulq-atvor, deviant, deviatsiya, agressiv xulq atvor, kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, ijtimoiy muhit, jinoyat, xulq buzilishi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические факторы, влияющие на девиантное поведение подростков, а также уделяется внимание формированию характера и его роли в смягчении или усилении подобных форм поведения. Девиантное поведение вызывает серьезную обеспокоенность не только у самих подростков, но и у их семей, школ и общества в целом. Понимание психологических факторов, влияющих на такое поведение, а также разработка эффективных мер профилактики имеют важное значение. Исследование направлено на выявление основных психологических детерминантов, оценку их влияния на поведение подростков и поддержку развития положительных черт характера у подростков.

**Ключевые слова:** подростки, поведение, девиантность, девиация, агрессивное поведение, мелкие кражи, вымогательство, социальная среда, преступление, нарушение поведения.

**Annotation:** This article examines the psychological factors influencing adolescents' deviant behavior, with particular attention to the formation of character and its role in either mitigating or intensifying such behavior. Deviant behavior poses a serious concern not only for adolescents themselves, but also for their families, schools, and communities. Understanding the psychological factors affecting such behavior and developing effective preventive measures are of great importance. The study aims to identify the main psychological determinants, assess their impact on

adolescents' behavior, and support the development of positive character traits in adolescents.

**Keywords:** adolescents, behavior, deviance, deviation, aggressive behavior, petty theft, extortion, social environment, crime, behavioral disorder.

"Mamlakatimizda yaratilayotgan islohatlarning aksariyati yoshlarning kelajagi, ularning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishishlari uchun qaratilgan. Buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiylar, Amir Temurlar, Beruniylarni yana qayta jahon maydoniga qaytarishni istasak, birinchi navbatda aynan yoshlarning tarbiyasiga katta ahamiyat qaratish zarur" - deydi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev. Bugungi kunda o'smirlar tomonidan axbarotlarni qabul qilishda ularning tengdoshlari turli xil videorolik va videofilmlar, ko'plab ommaviy axbarot vositalari orqali olingan axbarotlarga nisbatan o'z vaqtida psixologik profilaktika tadbirlarini o'tkazilmaganligi ota-onalarning farzand tarbiyasiga bo'lgan loqaydligi ularda deviant xulq-atvorning shakllanishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarning barchasi ijtimoiy muhit ta'sirida o'smirlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, do'stlar bilan, yoki maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yorlardan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Deviant xulq-atvorga o'qishdan qochish, daydilik, bolalar va o'smirlarda chekish, aroqxo'rlik, giyohvandlik va shu bilan bog'liq ijtimoiy harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinish kabi harakatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. E. V. ZMANOVSKOYning fikricha deviant xulq-atvorning 3 ta shakli mavjud: antisotsial, asotsial, avtodestruktiv xulq. Antisotsial xulq- huquqiy me'yorlarga zid bo'lgan va ijtimoiy tartib va o'zga kimsalarning farovonligiga tahdid soladigan xatti-harakatlar. Masalan: o'smirlarda juda tez uchraydigan yosh va zaif tengdoshlarga, hayvonlarga nisbatan zo'ravonlik; ularga jismoniy zarar yetkazish. Bugungi kunda jamoat transportlarida ham yuz berayotgan talonchilik harakatlari, o'zgarar mulkiga ega chiqish kabi jinoiy harakatlar ham shular jumlasidandir. Asotsial xulq- jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarni amalga oshirishdan qochish, shaxslararo munosabatlarga putur yetkazuvchi harakatlar majmui. O'smir yoshlarda uydan chiqib ketish, daydilik qilish, maktabga bormaslik yoki ta'lim olishdan bosh tortish, tajovuzkor axloq, garffiti (devorlarga turli xil uyatsiz xarakterdagi rasmlarni chizish yoki yozuvlar yozish), submadaniy deviatsiyalar (sleng, shramlash yoki ta'nadagi turli xil tatuirkalar) birmuncha tarqalgan. Asotsial axloqning chegaralari, ayniqsa, o'zgaruvchan, chunki u boshqa axloqiy deviatsiyalardan ko'ra madaniyat va vaqtning ta'siri ostidadir. Avtodestruktiv (o'z-o'zini parchalovchi axloq)- bu tibbiy va psixologik me'yorlardan og'ishgan, shaxsning rivojlanishi hamda umuman o'ziga xavf soluvchi axloq. O'z-o'zini parchalovchi axloq zamonaviy dunyoda quyidagi asosiy shakllarda yuzaga keladi: suitsidal axloq, ozuqaga muhtojlik, kimyoviy moddalarga muhtojlik (psixotrop moddalarni suiiste'mol qilish), fanatik axloq (o'smirlarda fanatizm rivojlanishi, masalan, destruktiv-diniy madaniyatga tortilish), hayot uchun aniq ko'rinib turgan xatarli faoliyatlar (ekstremal sport turlari, avtomobillar haydaganda tezlikni o'ta yuqori oshirish va boshqalar).

Axloqiy buzilishlarning tibbiy tasnifi psixopatologik va yosh me'zonlariga asoslangan. Ularga muvofiq tibbiy tashxisli me'zonlarga munosib, ya'ni kasallik darajasiga ko'tarilgan axloqiy buzilishlar ajratiladi. Kasalliklar xalqaro tasnifining o'ninchi qayta ko'rib chiqishdagi (MKB-10) "Psixik va axloqiy buzilishlar tasnifi"ning [9] bo'limida quyidagilarni axloqiy buzilish deb aytiladi:

1) 10-19-boblar- psixik va axloqiy buzilish oqibatida psixofaol moddalarni (spirtli ichimliklar, uxlatuvchi moddalar, tamaki, gallyutsinogenlar, kokain va boshqa uyg'unlashgan uchuvchi eritmalar)

iste'mol qilish;

2) 63-bob- odatlar va intilishlarning (piromaniyapatalogik kuyishlar, soch yulish- trixotilomaniya) buzilishi. Ko'rsatilgan bo'limlar bolalar va o'smir yoshdagilar uchun xarakterli bo'lgan boshlanish bilan bog'liq axloqiy buzilish tipologiyasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, o'smirlardagi axloqning tanazzulga yuz tutishi ommaviy alkogolizm, bo'shashish, giyohvandlikning tarqalishi, zo'ravonlik va huquqbuzarliklarning ko'payishida o'z ifodasini topmoqda. M. Z. SHOGENOVning tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, deviant xulqli o'smirlar ko'proq kam ta'minlangan oilalardan kelib chiqadi, ya'ni bu oiladagi noto'g'ri turmush sharoiti va noto'g'ri tarbiya, o'smir tomonidan bilimlarni o'zlashtirishdagi muammolar hamda boshqa hayotiy muvaffaqiyatsizliklar, boshqa kishilar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan nizolar, sog'liq bilan bog'liq bo'lgan turli muammo kabilar hayot mazmunining yo'qolishiga olib keladi. Hozirgi kunda qator mutaxassislar tomonidan deviant xulq-atvor shakllarining ko'plab turlari tasniflangan. Biroq psixolog va huquqshunos olimlarning tasniflari ko'proq maqbul variant sifatida e'tirof etilmoqda. S. G. ALEKSANDROVga ko'ra deviant xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

1. Jinoyatchilik;
2. Giyohvandlik;
3. Ichkilikbozlik;
4. Fohishabozlik;
5. O'z joniga qasd qilish (suitsid);
6. Uydan qochib ketish yoki daydilik;
7. Qo'rquv va isyonkorlik;
8. Vandalizm (maqsadsiz harakatlar);
9. Agressiya;
10. Dushmanlik va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilgan har bir deviant xulq-atvor turli jamiyat uchun ancha xavfli sanalib, ularning oldini olish uchun avvalo, muammoning mazmun-mohiyati va tabiati bilan jiddiy shug'ullanish maqsadga muvofiq sanaladi. Qolaversa, bir qatir fanlar- tibbiyot, huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, axloqshunoslik, biologiya saholarida bu borada keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda. Agarda, mahalliy psixologik tadqiqotlarda mazkur masalada keng izlanishlar olib borilsa, deviant xulq profilaktikasiga oid yangi psixologik dasturiy ta'limotlar ishlab chiqilsa, ushbu illatning yoshlar o'rtasida tarqalishining oldi olinishi ehtimoldan holi emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent-2017.
- 2) G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2010.
- 3) O'smirlarda axloq me'yorlaridan chetga chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llari BMI. Raimov Shuhrat-2013.
- 4) I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2014.
- 5) Umarov B.M. Xulq buzilishining kelib chiqishida oila muhiti. "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent-2001.